

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA AKADEMIK HALOLLIKNI TA'MINLASH

Bakiyeva Durдона Baxtiyarovna

Guliston davlat pedagogika instituti, o'qituvchi (PhD).

e-mail: bakiyevadurdona@gmail.com ORCID: <http://orcid.org/0009-0006-1416-9802>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini generativ sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirish imkoniyatlari hamda mazkur jarayonda akademik halollikni ta'minlash tamoyillari muhokama qilinadi. Akademik yozuv jarayonida generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining funksiyalari rejalashtirish, g'oya yaratish, akademik matnni shakllantirish, grammatik va leksik tahlil, g'oyani takomillashtirish, ilmiy manbalar bilan ishlash va refleksiv qayta ko'rib chiqish asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, generativ sun'iy intellekt vositalaridan nazoratsiz foydalanish yoki ularga haddan ortiq tobe bo'lib qolish natijasida akademik halollik tamoyillarining buzilishi, plagiat, tayyor matnni o'zlashtirish, tekshirilmagan manbalardan foydalanish, mualliflik masalalaridagi noaniqliklar hamda mustaqil fikrlash qobiliyatining cheklanishi kabi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar muhokama qilinadi. Maqolada filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida generativ sun'iy intellekt vositalaridan "matn yaratuvchi" emas, balki "pedagogik jihatdan yordam beruvchi vosita" sifatida foydalanishga asoslangan metodik yondashuv taklif etiladi. Ushbu yondashuv talabalarining prompt tuzishi, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javoblarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishi, ilmiy manbalarni mustaqil tekshirishi, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanganligini ochiqlashi va akademik yozuv jarayonini bosqichma-bosqich hujjatlashtirib borishini nazarda tutadi. Tadqiqot natijasida generativ sun'iy intellekt texnologiyalari asosida filologiya talabalarining ingliz tilidagi akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish va akademik halollikni ta'minlashni o'zaro uyg'unlashtiruvchi didaktik-metodik modelni ishlab chiqishning nazariy asoslari belgilab olindi.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, akademik yozuv, akademik yozuv kompetensiyasi, filologiya talabalarini, akademik halollik, sun'iy intellekt savodxonligi, raqamli pedagogika.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ДОБРОСОВЕСТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Бакиева Дурдона Бахтияровна

Гулистанский государственный педагогический институт, преподаватель (PhD).

Аннотация.

В статье рассматриваются возможности развития компетенции академического письма на английском языке у студентов филологических направлений высших образовательных учреждений Узбекистана на основе технологий генеративного искусственного интеллекта, а также принципы обеспечения академической добросовестности в данном процессе. Анализируются функции генеративного искусственного интеллекта в академическом письме, включая планирование, генерирование идей, формирование академического текста, грамматический и лексический анализ, совершенствование идей, работу с научными источниками и рефлексивный пересмотр текста. Рассматриваются также потенциальные проблемы, связанные с неконтролируемым или чрезмерным использованием инструментов генеративного искусственного интеллекта: нарушение принципов академической добросовестности, плагиат, присвоение готового текста, использование непроверенных источников, неопределённость в вопросах авторства и ограничение способности к самостоятельному мышлению. Предлагается методический подход, предусматривающий использование генеративного искусственного интеллекта не как «генератора текста», а как «педагогического вспомогательного инструмента» в процессе развития

компетенции академического письма на английском языке у студентов-филологов. Данный подход предполагает формирование у студентов навыков составления промптов, критического анализа ответов искусственного интеллекта, самостоятельной проверки научных источников, раскрытия факта использования инструментов искусственного интеллекта и поэтапного документирования процесса академического письма. В результате исследования определены теоретические основы разработки дидактико-методической модели, объединяющей развитие компетенции академического письма на английском языке с обеспечением академической добросовестности при использовании технологий генеративного искусственного интеллекта.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, академическое письмо, компетенция академического письма, студенты-филологи, академическая добросовестность, грамотность в области искусственного интеллекта, цифровая педагогика.

ENSURING ACADEMIC INTEGRITY IN DEVELOPING ACADEMIC WRITING COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS THROUGH GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Bakiyeva Durdona Baxtiyarovna

Gulistan State Pedagogical Institute, Lecturer (PhD).

Abstract.

This article discusses the potential of generative artificial intelligence technologies for developing English academic writing competence among philology students at higher education institutions in Uzbekistan, as well as the principles of ensuring academic integrity in this process. The functions of generative AI in academic writing are analyzed in relation to planning, idea generation, academic text development, grammatical and lexical analysis, idea refinement, working with scholarly sources, and reflective revision. The article also examines potential problems arising from uncontrolled or excessive reliance on generative AI tools, including violations of academic integrity, plagiarism, appropriation of AI-generated texts, the use of unverified sources, ambiguity concerning authorship, and limitations on independent thinking. A methodological approach is proposed in which generative AI is used not as a "text generator" but as a "pedagogical support tool" for developing students' English academic writing competence. This approach involves training students to construct prompts, critically evaluate AI-generated responses, independently verify scholarly sources, disclose the use of AI tools, and document the academic writing process step by step. The study establishes the theoretical foundations for developing a didactic-methodological model that integrates the development of English academic writing competence with the maintenance of academic integrity in the use of generative artificial intelligence technologies.

Keywords: generative artificial intelligence, academic writing, academic writing competence, philology students, academic integrity, AI literacy, digital pedagogy.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi hamda ularning ta'lim jarayonlariga faol integratsiyasi oliy ta'lim talabalarining bilim olish, axborotlarni qayta ishlash hamda akademik yozuv ko'nikmalarini sezilarli ravishda o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining keng miqyosda ommalashuvi oliy ta'limda akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi pedagogik va etik muammolarni ham olib keldi. Shu o'rinda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari nima, degan savolga javob berib ketish maqsadga muvofiq. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari matn, tasvir, kod va boshqa turdagi yangi kontentlarni yaratishga qodir sun'iy intellekt tizimlarini anglatadi. Ayniqsa, ChatGPT, Gemini, Claude, Microsoft Copilot kabi katta til modellari foydalanuvchi talabalarining talabi asosida matn yaratishi, tayyor matnni qayta ishlashi, umumlashtirishi, tarjima qilishi, grammatik xatolarni aniqlashi va matnni takomillashtirish kabi topshiriqlarni bajarishi mumkin. Sohaga oid tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda g'oya yaratish, rejalashtirish, matnni qayta ko'rib chiqish, matn tilini tahrirlash va ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarni qo'llab-quvvatlashi kuzatilgan. Biroq generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlariga integratsiyasini faqat texnologik imkoniyat sifatida baholash noto'g'ri. Chunki sun'iy intellekt texnologiyalari tomonidan yaratilgan tayyor matnni talaba tomonidan shaxsiy natija sifatida, mustaqil fikr va mualliflik hissini qo'shmagan holda taqdim etish akademik halollik, mualliflik huquqi, ta'lim natijalarini haqqoniy baholash bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Filologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun, ayniqsa, generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda akademik halollik masalalariga chuqur ahamiyat berish muhim. Chunki ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish bilan baholab bo'lmaydi, aksincha, akademik janrlarni tushunish, mantiqiy argument keltirish, dalillar keltirish, ilmiy manbalardan to'g'ri

foydalanish, matnning izchilligi va mantiqiy ravonligini ta'minlash hamda o'z nuqtayi nazarini ilmiy uslubda asoslash kabi kompleks ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarining o'rniga matn yaratib beruvchi vazifasini bajarmaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari mustaqil akademik yozuv ko'nikmasini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Sun'iy intellekt sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda ham generativ sun'iy intellekt vositalarini insonning fikrlash qobiliyati va qaror qabul qilish ko'nikmalarining o'rnini egallovchi vosita sifatida emas, balki ushbu jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo'llash lozim ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu generativ sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqotining asosiy maqsadi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini generativ sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda mazkur jarayonda akademik halollikni ta'minlashga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining akademik yozuv jarayonlaridagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi akademik yozuv kompetensiyasining asosiy komponentlarini aniqlash;

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari akademik yozuvni qaysi bosqichlarda qo'llab-quvvatlashi mumkin ekanligini aniqlash;

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan akademik halollik xavflarini tizimlashtirish;

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyat bilan foydalanishning pedagogik va metodik tamoyillarini ishlab chiqish;

Akademik yozuvni rivojlantirish va akademik halollikni saqlashni birlashtiruvchi metodik modelni taklif qilish.

Shuningdek, quyidagi tadqiqot savollari ilgari suriladi:

1. Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida generativ sun'iy intellekt texnologiyalari aynan qaysi bosqichda pedagogik jihatdan samarali yordam beradi?


2. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda foydalanish qanday afzalliklarga ega?

3. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining akademik halollik tamoyilini saqlab qolishda qanday xavflari mavjud?

4. Akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda akademik halollikni ta'minlashning qanday birlashtirilgan yagona metodik tizimini taklif qilish mumkin?

Akademik yozuv va generativ sun'iy intellekt tushunchalarining nazariy asoslari. Akademik yozuv murakkab kognitiv va kommunikativ jarayon bo'lib, u ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, saralash, umumlashtirish va ilmiy uslubda ifoda etish orqali yangi akademik mahsulot yaratishni nazarda tutadi. O'zbekiston ta'lim muassasalaridagi filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining akademik yozuv kompetensiyasini quyidagi o'zaro bog'langan komponentlarga ajratish mumkin:

Lingvistik komponent — tarkibiga grammatika, akademik leksikadan foydalanish, sintaksis va tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish kabi jihatlar kiradi.



1-Rasm. Akademik yozuv komponentlari

Matn tuzish komponenti — akademik matnning tarkibiy qismlari kirish, asosiy qism, xulosa kabilardan iborat bo'lishi lozim.


Argumentativ komponent — akademik matnda tezis, dalil, misollar keltirish va xulosalarni mantiqan bog'lash.

Manba bilan ishlash komponenti — ilmiy manbalarni izlash, baholash, parafrasa qilish hamda iqtibos keltirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Refleksiv komponent — yozilgan matnni mustaqil baholash va qayta ishlash.

Etik komponent — akademik halollik, mualliflik va sun'iy intellekt yordamidan foydalanishni ochiq ko'rsatish. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu komponentlarning ayrimlarini bevosita qo'llab-quvvatlaydi. Ammo

Mazkur modeldagi ketma-ketlik generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining talaba o'rnini egallashini bildirmaydi. Bu modeldagi ketma-ketlikda ushbu texnologiyalar akademik yozuv jarayonida talabalarning faol fikrlashini ta'minlovchi va qayta aloqani o'rnatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.



Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining akademik yozuv etensiyasini rivojlantirishning eng muhim afzalliklaridan biri — bu talabalarning tezkor qayta aloqa asosida o'z faoliyatini muvofiqlashtirib borishidir. Shuningdek, talabalar sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida akademik yaratish oldidan g'oya yaratishi va mavzuni chuqurroq tushunishi, akademik matn yozish jarayonida matn hini aniqroq tushunishi, grammatik va leksik kompetensiyasini takomillashtirishi hamda tayyor matn yoki uni o'z fikr-mulohazalarini ham qo'shgan holda qayta yozishi mumkin.

Yana bir akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirayotgan talabalarda keng uchraydigan muammolardan biri — bu fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtira olmaslikdir. Bu muammoning oldini olish uchun talaba akademik yozuv jarayonida o'z rejasini dastlab generativ sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida tekshirib olishi mumkin. Bu ham sun'iy intellektdan tayyor reja tuzib berishini emas, balki talaba tomonidan taqdim etilgan rejani takomillashtirish va tahrirlash imkonini beradi. Masalan, talaba "Mening yozma ishimdagi mantiqiy ketma-ketlikni baholab ber. Inobatga olmagan jihatlarimni, takrorlanishlar uchragan o'rinlarni hamda bog'lovchilarni noo'rin qo'llagan jihatlarimni ko'rsatib ber. Ammo ishni qaytadan yozib berma" ko'rinishida topshiriq yuklash orqali bilib olishi mumkin.

Akademik yozuvni rivojlantirish jarayonlarida o'zlashtirish lozim bo'lgan eng muhim jihatlardan yana biri — fikrlarni o'z lug'at boyligi asosida qayta yoza olishdir. Bunda eng asosiy qoida mazmunning o'zgarmasligidir. Bu o'rinda ham sun'iy intellekt texnologiyalariga tayyor matnni qayta yozib berish topshirig'ini yuklamasdan, aksincha, talaba o'zi

qayta yozgan matnni baholovchi vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv orqali talabanning mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, akademik halollik tamoyillarini ham saqlab qolish imkoniyati oshadi.

Xulosa qilganda, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimiga ham jadal sur'atlarda kirib kelishi ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini metodik va pedagogik jihatlardan qayta tahlil qilish lozim ekanligini ko'rsatmoqda. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishi talabalari g'oya yaratish, rejalashtirish, akademik uslubni takomillashtirish, grammatik va so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarini aniqlash, matnning mantiqiy tuzilmasini baholash hamda matnni qayta ishlash jarayonini samarali amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin. Biroq generativ sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarining mustaqil akademik faolligi o'rnini egallashi mumkin emas. Tahlillarga tayangan holda, ushbu texnologiyalardan foydalanishda "almashtiruvchi" emas, "yordamchi" tamoyiliga asoslanish lozim, deb topildi. Bunday yondashuvda akademik matnning muallifi talaba bo'lib qoladi. Akademik halollik esa talabanning sun'iy intellekt tomonidan berilgan ma'lumotlarni tekshirishi, akademik yozuv jarayonida sun'iy intellektidan foydalanganligini deklaratsiya qilishi hamda undan foydalanish jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsatib o'tishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarida butunlay cheklash, talabalarga undan foydalanishga taqiq qo'yish yoki undan cheklanmagan miqdorda foydalanishga ruxsat berish o'rtasida juda katta farq mavjud bo'lib, uni pedagogik jihatdan boshqarish mumkin bo'lgan, shaffof (oshkora), akademik halollik tamoyillariga asoslangan, generativ sun'iy intellekt integratsiyalashgan akademik yozuv modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – 2019-yil 8-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori. – 2021-yil 17-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son Qarori. – 2021-yil 26-avgust.
4. Flower L., Hayes J. R. A Cognitive Process Theory of Writing // *College Composition and Communication*. – 1981. – Vol. 32, No. 4. – P. 365–387. – DOI: [10.2307/356600](https://doi.org/10.2307/356600)
5. Hysaj A., Dean B. A., Freeman M. Exploring the Purposes and Uses of Generative Artificial Intelligence Tools in Academic Writing for Multicultural Students // *Higher Education Research & Development*. – 2025. – Advance online publication. – DOI: [10.1080/07294360.2025.2488862](https://doi.org/10.1080/07294360.2025.2488862)
6. Johnston H., Wells R. F., Shanks E. M., Boey T., Parsons B. N. Student Perspectives on the Use of Generative Artificial Intelligence Technologies in Higher Education // *International Journal for Educational Integrity*. – 2024. – Vol. 20. – Article 2. – DOI: [10.1007/s40979-024-00149-4](https://doi.org/10.1007/s40979-024-00149-4)
7. Kim J., Yu S., Detrick R., Li N. Exploring Students' Perspectives on Generative AI-Assisted Academic Writing // *Education and Information Technologies*. – 2025. – Vol. 30. – P. 1265–1300. – DOI: [10.1007/s10639-024-12878-7](https://doi.org/10.1007/s10639-024-12878-7)
8. Kofinas A. K., Tsay C.-H., Pike D. The Impact of Generative AI on Academic Integrity of Authentic Assessments Within a Higher Education Context // *British Journal of Educational Technology*. – 2025. – P. 1–28. – DOI: [10.1111/bjet.13585](https://doi.org/10.1111/bjet.13585)
9. Maphoto K. B., Sevnarayan K., Mohale N. E., Suliman Z., Ntsopi T. J., Mokoena D. Advancing Students' Academic Excellence in Distance Education: Exploring the Potential of Generative AI Integration to Improve Academic Writing Skills // *Open Praxis*. – 2024. – Vol. 16, No. 2. – P. 142–159. – DOI: [10.55982/openpraxis.16.2.649](https://doi.org/10.55982/openpraxis.16.2.649)
10. Wang L., Ren B. Enhancing Academic Writing in a Linguistics Course with Generative AI: An Empirical Study in a Higher Education Institution in Hong Kong // *Education Sciences*. – 2024. – Vol. 14. – Article 1329. – DOI: [10.3390/educsci14121329](https://doi.org/10.3390/educsci14121329)